

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI
“TARIX” yo‘nalishining**

**“TARIX FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
METODLARI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA

BUXORO-2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024-yil 29 dekabrdagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **K.J.Rahmonov**–BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti t.f.n.

Taqrizchi: **Sh.A.Hayitov** - BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	14
III. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	24
IV. GLOSSARIY	47
V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....	52

I. Ishchi dastur

Kirish

Ushbu ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik liseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta'lim jarayonida tarix fanini o'qitishning zamonaviy metodlariga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi..

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini tarix ta'limiga oid bilimlarini takomillashtirish, shuningdek tarix fanining nazariy va metodologik asoslariga doir chet el tajribalari va muammolarni aniqlash va tahlil etishdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- hozirgi zamon jamiyatida ta'lim jarayonlarining rivojlanish;
- ta'lim sohasida pedagogik jarayonlarga texnologik nuqtai-nazardan yondashish;
- tarix fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar, texnologik yondashuv va o'quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish;
- bugungi kunda tarix ta'limi jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqishni ortib borish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Tarix fanini o'qitishning zamonaviy metodlari" kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

Tinglovchi:

- tarix sohasi bo'yicha Respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini va ularning mohiyatini;
- yangi innovasion va pedagogik texnologiyalarni va ularning xalqaro qiyosiy tahlilini;
- tarix sohasiga oid yangi nazariy qarashlar va konsepsiyalarni, ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishni;
- tarix sohasiga oid amaliy va nazariy masalalarini yechishi, yangi texnologiyalarni va dasturlar paketlarini qo'llashni;
- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlar tadqiqot qilishi va ishlab chiqishni ***bilishi zarur***;

Tinglovchi:

- tarix o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va malakalarni oshirib borish;
- ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarin qo'llash;
- tarix va tarixiy fanlar sohasida axborot texnologiyalari yordamida mustaqil ravishda yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashi hamda ulardan amaliy foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak***.

Tinglovchi:

- tinglovchilarni o'ziga jalb qilgan xolda yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalar asosida fanni tushuntirish;
- Tarix va tarixiy fanlar sohasi bo'yicha faoliyatning ilmiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarida faol ishtirok etish;
- ish bo'yicha muloqotda bo'lish vositasi sifatida xorijiy tillardan birini erkin co'zlashuv ***malakalarga ega bo'lishi kerak***;

Tinglovchi:

- zamonaviy va innovasion ta'lim muhitini boshqarish;
- tarix bo'yicha zamonaviy va innovasion ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- tarix sohasi bo'yicha tinglovchilarning izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Tarix fanini o'qitishning zamonaviy metodlari” moduli materiallari bilan kurs tinglovchilarini tanishtirish ma'ruza va seminar mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limining zamonaviy usullari, kompyuter

texnologiyalari, internet tarmog'idan olingan yangiliklarni qo'llash usulidan foydalaniladi. Ma'ruza darslarida prezentasiya usulida, amaliy mashg'ulotlarda esa yangi laboratoriya, aqliy xujum, guruxli fikrlash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda dars o'tish jarayonida tarix darslarining samaradorligining oshirib borishning asosiy yo'llarini yangi xorijiy pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida olib boriladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy (pedagogika, psixologiya), umumkasbiy (O'zbekiston xalqlari tarixi, jaxon tarixi, tarixshunoslik, manbashunoslik va h. k.) va ixtisoslik (O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asr shaharlari tarixi, xalqaro munosabatlar va diplomatiyasi tarixi, O'rta Osiyo tasavvuf xarakatlari tarixi va h. k.) o'quv modellari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning tarix fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar fani bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga hizmat qiladi.

Modulning ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar tarix o'qitish metodikasini o'qitish va o'rganish jarayonlarini tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Tarix fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar, texnologik yondashuv va o'quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish.	2	2	
2.	Tarix o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va malakalarni oshirib borishi.	2	2	2
3.	Ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarin qo'llash	2		2
	Jami:	6	2	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: TARIX FANINI O‘QITISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR, TEXNOLOGIK YONDASHUV VA O‘QUV JARAYONINI ANIQ VOSITALAR YORDAMIDA BOSHQARISH

Tarix fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar fanining mazmuni, maqsadi va uni tashkil etish metodlari. Tarix fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar fanining hozirgi jamiyatdagi xolati va rolini tahlil etish. O‘zbekistonda tarix o‘qitish metodikasini pedagogik fan sifatida shakllanishi va xorijiy davlatlar tarixi va metodikasi bilan bog‘liqligi. Tarix fanining nazariy va metodologik asoslari, tarix fani va hozirgi zamon jamiyati.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: TARIX O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORATGA OID BILIM, TAJRIBA VA MALAKALARNI OSHIRIB BORISHI.

O‘zbekistonda tarix fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar, va yangicha munosabatlar. Tarix darslariga bo‘lgan umumiy pedagogik va didaktik talablar asosida zamonaviy dars variantlarini eksperimental tajribalar asosida ishlab chiqish. Zamonaviy tarix darslariga bo‘lgan ilmiy-metodik va didaktik talablar.

2-amaliy mashg‘ulot: TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIN QO‘LLASH.

Hozirgi zamon jamiyatida ta’lim jarayonlarining rivojlanishi. Ta’lim sohasida pedagogik jarayonlarga texnologik nuqtai-nazardan yondashish. Tarix fanini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar, texnologik yondashuv va o‘quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish. Bugungi kunda tarix ta’limi jarayonida interfaol uslublar, innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqishni ortib borishi. Tarix o‘qitishda yangi pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va malakalarni oshirib borishi. Texnologiya bu- o‘quv jarayonini tashkil etish usullari, materiallar, odamlar, muassasalar va tizimlar xaqidagi fikrlar timsoli ekanligi. Ta’lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarin qo‘llash ishlarini birinchi bor amalga oshirda xorij olimlari B.Blum, D.Kratvol, N.Granlund, Dj.Kerolla, Dj.Blok, L.Anderson va boshqalarning faoliyati. AQSH, Germaniya va Yaponiya olimlarining pedagogik texnologiyalarga bergan ta’riflari. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishni MDH mamlakatlari ichida birinchilar qatorida xar tomonlama ilmiy-

metodik jihatdan asoslab bergan olimlar-V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, M.V.Klarin, I.Ya.Larner, B.L.Farberman va boshqalarning asoslari.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Tarix fanini o'qitishning zamonaviy metodlari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta'limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma'ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;

o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Ahmedov B . O'zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o'rta asrlar): Tarix muallimlari, talabalar va yuqori sinf o'quvchilari uchun qo'llanma. -T.: "O'qituvchi", 2001. -352 b.
2. Jo'rayev R.H., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. -T.: Sharq, 2005. -80 b.
3. Ochilov M. Muallim- qalb me'mori. -T.: O'qituvchi, 2001. -430 b.
4. Baubekova G. Pedagogicheskoye masterstvo. - T., 2000.
5. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T, 2001.
6. Imomnazarov M., Eshmuxamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. -T.: Toshkent islom universiteti. - 2001.
7. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. - 68 b.
8. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste'dod, 2010. -140 b.
9. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablisax i opornyx konspektax. / M.: Ayris-press, 2006.
10. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -T.: 2006.
11. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumta'lim maktabida o'qitish metodlari - T.: O'qituvchi, 1990. - 229 b.
12. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmuntanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. -T.: TESIS, 2001. -38 b.
13. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T., 2003.
14. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. -T.: Fan, 2005. -205 b.
15. Safin D.V., Musina R.G. Ta'lim berish va o'qishning interfaol usullari. O'quv qo'llanma. -1-modul. Interfaol o'qitishning nazariy asoslari. -T., 2007.
16. Yo'ldoshev S.V. Tarix o'qitish metodikasi. Darslik. Farg'ona. "Clssic" 2022.
17. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
18. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
19. Использование информационных технологий в обучении истории и Обществознания. - М., 2009.

20. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории // История и современность. 2006. №1.

II. Internet saytlar

- 21. <http://yedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
- 22. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
- 23. <http://lib.bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
- 24. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet
- 25. <https://tarixinstituti.uz/uzb/> Bo‘limlar
- 26. <http://www.istedod.uz> - “Iste’dod” jamg‘armasi sayti
- 27. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI

Mashg‘ulotda jarayonida qo‘llaniladigan «Aqliy hujum» usuli

Aqliy xujum	-(breynstorming – miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni echishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
Usulni asosiy g‘oyasi	-g‘oyalar to‘plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-xarakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalar taklif qilishga undaydi.
Qoidalar	Imkoni boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni echish va ularni doskaga yozib qo‘yish.
Ta‘lim beruvchi	Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo‘ladi va har biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) -Ishtirokchilarni qo‘llab-qo‘vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo‘q so‘zlari bilan); -yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid qilishdan kaytarib turadi; -har bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi; -talabalarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blits so‘rov) (Ilova 2).
Fidbeyk	-har bir g‘oyani muhokama qilish; -eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-kuvvatlash

Aqliy hujumning maqsadi va qoidalar

Ақлий ҳужумни ўтказишдан мақсад:

- муаммони ҳал қилиш учун ғояларни топиш;
- ғояларни уларнинг аҳамиятлилигига қараб тартиблаш;
- фаол фикрлаш малакасини шакллантириш;
- кутилмаган ғояларни пайдо бўлиш жараёнини намоиш қилиш;
- топилган ғоялардан фойдаланиш кўникмасини шакллантириш.

Ақлий ҳужум қоидалари:

- ғояларни илгари сурилиши босқичида танқид тақиқланади;
- оригинал ҳатто фантастик ғоялар рағбатлантирилади;
- барча ғоялар ёзиб борилади ёки қайд қилинади;
- агар маъқул топса муаллифнинг ўзи ҳам ёзиб боради;
- “ақлий ҳужум” методида қатнашчилар бир-бири билан юридик ва маъмурий жиҳатдан боғлиқ бўлмаслиги зарур;
- таҳлилчилар гуруҳи нисбатан самарали ғояларни таҳлил қилади, синтез қилади, баҳолайди ва танлайди;
- ушбу тадбирни ўтказишда Кейнснинг “ иқтисодчилар адашсалар ҳам уларни ғояси келажак учун хизмат қилади” деган қондасига амал қилиш.

Натижа:

- талабалар томонидан муайян назарий билимларни пухта ўзлаштиришга эришилади;
- вақт ажратилади ва қилинади;
- ҳар бир талаба фаолликка интилади;
- уларда эркин фикрлаш лаёқати шаклланади.

О‘қув топшириқларини bajarish bo‘yicha vazifalar

Guruhni 3ta kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruh uchun 5 tadan savol tarqatma material sifatida tarqatiladi.

Izoh: Qaysidir guruh to‘la aniq javobni birinchi bo‘lib topsa guruhni har bir a‘zosiga 1.0 balldan baho qo‘yiladi. Agarda guruhdan 1 yoki 2ta talaba to‘g‘ri javob topsa u xolda ularga 1.0. balldan rag‘batlantiriladi.

Мавзу бўйича 1-гуруҳ саволлари:

1. Дидактик ўйинли дарсларнинг ўзига хос хусусиятлари, мазмуни ва моҳияти.
2. Тарихни ўқитишда фойдаланиладиган дидактик ўйинли дарсларнинг турлари:
3. сюжетли-ролли, ишбилармонлар, конференция, ўйин машқлардан фойдаланиш.
4. Модулли дарсларни ташкил этиш ва ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари,
5. ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий ишларини ташкил этиш
6. Модул дастурларини тузиш, ўқув материалларини блоklarга, модулларга ажратиш.

Мавзу бўйича 2-гуруҳ саволлари:

1. Муаммоли изланиш характердаги суҳбат, муаммоли баён, муаммоли амалий методлар.
2. “Ақлий ҳужум” ва мунозарали дарсларни ташкил этиш ва ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари,
3. илмий мунозара ва эркин фикрлаш дарслари.
4. Дидактик материаллар ва ўқув топшириқларини тузиш,
5. Ҳамкорликда ўқитиш технологиясининг
6. “Арра” методларидан фойдаланиш бўйича дидактик материаллар ва ўқув топшириқларини тузиш

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1. Маъзй: Tarix fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar, texnologik yondashuv va o'quv jarayonini aniq vositalar yordamida boshqarish. (2 coar)

Reja:

- 1. Kirish. "Tarix o'qitish metodikasi" fanining predmeti va uning vazifalari.**
- 2. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar.**
- 3. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.**

Tayanch so'z va iboralar:

Tarix o'qitish metodikasi fanining fanga kiritilishi, tarixi, rivojlanishi. Fanning tarkibiy qismlari, ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi respublikamizning bugungi kuninigina emas, balki istiqbolini ham belgilab beruvchi asosiy omildir. O'zbekiston Respublikasining istiqbol yo'li avlod-ajdodlarimizning tarixiy an'analari va ma'naviy merosiga suyanan holda tanlab olinadi. Zotan, mustaqillik yo'li O'zbekiston halqlarining tarixiy an'analari va ma'naviy boyliklarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo'ldir. Bu esa tarix o'qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, do'stlik, mehmondo'stlik, ma'rifatparvarlik kabi an'analari, imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur o'rganishni, ularni asrab-avaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirish, o'zini anglashga ko'maklashishi, respublikamiz istiqbolli uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarning bu tarixiy an'analari va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan-avlodga o'tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab-avaylab davom ettirish, avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo'lish o'zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish asosida o'quvchilar bu o'lka xududida qadimdan bir necha o'nlab millat va elatlar yonma-yon yashab kelganligi, ular mahalliy va ajnabiy bosqinchilar zulmiga qarshi birgalikda kurash olib borganligi, o'zbeklar hamisha boshqa millat va xalqlarga alohida hurmat bildirganligi, xalqlar qardoshligi va do'stligini muqaddas, deb ardoqlaganligi, o'zbek xalqining bu tabarruk an'anasi umuminsoniy qadriyatlarga

bebaho xissa bo'lib qo'shilganligi, millatlararo munosabatlar keskinlashib turgan hozirgi paytda bu an'ananing hayotiyliigi yana bir bor sinovdan o'tayotganligini anglab oladilar. Shuningdek, mustabid hukmdorlar va bosqinchilar hokimiyati yillarida xalqimizning moddiy-ma'naviy boyliklari va go'zal an'analari oyoq-osti qilib toptalgan, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillaridagi tanglik, paxta yakkahokimligi, kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qilganligini, ekologik muhitdagi nomutanosibliklarga, Orol fojiasiga, atrof muhit, yer-suv va havoning ifloslanishiga olib kelganligini, odamlarning sog'ligigagina emas, balki irsiyatga ham ta'sir ko'rsatayotganligini o'quvchilar tushunib olishi, ularning hozirgi ekologik muammolarni hal qilishda, jumhuriyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish o'quvchilarni avlodlarimizning ko'p ming yillik madaniy va ma'naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O'zbekiston xalqlari tarixi o'qituvchilarining milliy ongini o'stirishda, o'zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. Lekin, hozirga qadar bu imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmasdan kelindi.

Maktabda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubiyatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bog'liqdir. O'zbekiston xalqlari tarixi bo'yicha ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmaning qayta nashr qilinishi shu maqsad uchun xizmat qiladi degan umiddamiz. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalariga mo'ljallangan ushbu qo'llanma o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan —O'zbekiston tarixi va —Jahon tarixi fanlarining yangi dasturiga muvofiq tayyorlandi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, ilg'or an'alariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo'lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix kursining

maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlaridagi tarix fakultetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishdan ko'zda tutilgan kelgusida o'qituvchi bo'lib chiqadigan talabalarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Tarix o'qitish metodikasi tadqiq etadigan, talabalarning puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarix o'qitishning umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat va lar ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'ladi?

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'qitishning natijalari ham o'qituvchining o'qitishdan ko'zlangan maqsadni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga o'zluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Prof P.V.Gora tarix o'qitish metodikasi programmasi va lektsiya kursining ilmiy asoslariga bag'ishlangan ma'ruzasida o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining umumiy qonuniyatlarini quyidagi sxemada ifodalab, ularning har qaysisiga izoh beradi.

Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga

o'shish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni o'rganishni tashkil etish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchilarning boshqarishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish ularni ijodiy bilishga yo'naltiriladigan topshiriqlar sistemasi hamda ta'limning turli xil formalari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.

O'qitishning natijalari deganda esa, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvafaqqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o'quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o'zlashtirishlari shu asosda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi.

Shunday qilib, o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining yuqoridagi umumiy qonuniyatlari quyidagi ob'ektiv va qat'iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo'ladi: o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi, maqsad va mazmuniga mos keladigan o'qitish metodi va usullari tanlanadi, o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan qat'iy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya'ni tarixiy bilimning sifati, o'quvchilarning kamol topish darajasi bilan o'lchanadi.

Ta'limni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, 5-9 sinflarda tarix o'qitish oldida turgan umumiy maqsad bilan ta'lim-tarbiya vazifalarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rnini, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, xatto har bir darsda o'qitiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o'rnini bor, bu darsda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi.

Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak. Ta'limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limning boshqa shart-sharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi naqadar chuqur anglab olgan bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarix DTS asosida o'quvchilarga o'rgatiladigan tarix ta'limidan ko'zda tutilgan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o'quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko'nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o'stiradi. Tarix o'qitishning samarali bo'lishida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatining bo'lishligi juda ko'p omillarga, avvalo, mashg'ulot mazmunining g'oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lishiga, o'qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o'rganib olishning muhimligini o'quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o'rganishga ishtiyoq uyg'otish bog'liqdir. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarni mashg'ulot mazmunini o'zlashtirib borishi ustidan qilingan nazorati, o'quvchilar o'rganishini boshqara bilishi, shuningdek ularning yangi bilimlarini o'zlashtirish uchun o'zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya'ni o'zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix kursi mazmunan juda boy va xilma-xildir. Tarix kursining mazmuni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida uni o'qitish va o'quvchilarning o'rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi. Demak, mashg'ulotning mazmuni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning ham asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'qituvchi bilish faoliyatini faollashtirishga ijobiy ta'sir etuvchi va umuman o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi metodik usul va vositalarni tanlashda ham o'rganilayotgan tarixiy materialning mazmunini nazarda tutmog'i lozim. Tarix o'qitish metodikasi jarayoning tarkibiy qismlari o'rtasidagi qat'iy takrorlanadigan

o'zaro aloqa va bog'lanishlarda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni ochib beradi va tarix o'qitish jarayonini takomillashtirishda ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatib beradi. Demak, tarix o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari bilan qurollantiradi. Shuningdek, metodika ularni tarix o'qitish jarayonini o'rganishning tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi. Tarix o'qitish jarayoni ikki yo'l bilan o'rganiladi. Birinchisi, kuzatish metodidir. Bu metoddan foydalanganda turli xildagi o'quv-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning yozma ishlari, doklidlari, ularning javoblari, o'qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalari o'rganiladi.

Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, tadqiqotchi tarix o'qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi, uni tabiiy ravishda kuzatadi va o'rganadi.

Ikkinchisi eksperiment metodi. O'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi xohlaganicha uyushtiradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy eksperimentga o'xshab ketadi. Biroq, o'qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarning ilmiy eksperimentdan farqi, avvalo shundaki, o'qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xuloslari esa, o'z faoliyatining natijasi bo'ladi. Ilmiy eksperimentda ko'pchilik o'qituvchilarning ishi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun ham tarix o'qitish jarayonini tadqiq etishdagi kuzatish metodini eksperimental tadqiqotdan farq qila bilish kerak.

Tarix o'qitish metodikasi tarix fani bilan o'zviy bog'liqdir. Tarix o'qitish o'quvchilarga tarixiy voqelikni bildirishdan iboratdir. Shu jihatdan o'quvchilarning tarixiy voqelikni bilish yo'llari tarixiy tadqiqotga o'xshab ketadi. O'quvchilar tarixni o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilib ko'rilgan va tahlil qilib chiqilgan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan birga, ba'zan faktlarni yanada aniqlash, tarixiy faktlardan umumiy xulosalar chiqarish, umumiy xulosalardan yangi faktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarixni o'rganishi ilmiy tekshirishdan farq qiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar tarix fanini va uning ba'zi tadqiqot metodlaridan bilib oladilar.

Shunday qilib, tarix fani va tarix o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish ob'ekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega. Tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o'rganadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish o'tmish va hozirgi zamonni yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi.

Metodika o'qituvchilarni o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarni ochib berish bilan birga o'qitishning samaradorligini oshira borish maqsadida tarix

o'qitish jarayonini tadqiq etish metodlari bilan ham qurollantiradi. Metodika tarix fani asoslarini ochib berish maqsadida tarixiy manbalar, faktlar va umumiy xulosalardan foydalanadi. O'qitish metodikasi tarix fanining ba'zi bir tekshirish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshiroq o'zlashtirishlarini va ularni tarix fanining ba'zi tadqiqot metodlari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. O'quvchilarning yangi faktlarni tahlil etish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish paytida o'rgangan bilimlari juda ham mustahkam va ishonarli bo'ladi, shuningdek, o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadi, bu ularni tadqiqot olib borishning dastlabki usullari bilan tanishtirishga yordam beradi. Shunday qilib, o'z predmeti, vazifalari va tadqi etish metodlariga ega bo'lgan tarix o'qitish metodikasini tarix fanlari qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib o'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarix o'qitish jarayonida ustod va shogirdlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, sog'lom va estetik kayfiyat vujudga keltirishi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi.

Psixologiya fani o'quvchilardagi psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, metodika esa o'quvchilarning psixik faoliyatini ularning tarixiy materialni o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarinigina tadqiq qiladi. Shuningdek, uning o'quvchilardagi psixik faoliyatni tadqiq etish metodlaridan ham qisman foydalanadi. Psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa, tarix o'qitishning mazmuni va metodik usullar bilan psixik faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni o'rganadi. Demak, har ikkala predmetning o'rganadigan ob'ektlari qisman o'xshash bo'lsa-da, vazifalari boshqa-boshqadir.

Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish, o'quvchilarning tarixiy materialni puxta o'zlashtirishi bilan faoliyati o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni ham o'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga suyanadi, o'quvchilarning psixik faoliyatini o'rganishda psixologik tekshirish metodlaridan foydalanish yo'llarni ham ko'rsatib beradi. Metodika ta'lim-tarbiya haqidagi pedagogika fani, uning tarkibiy qimi bo'lgan didaktika bilan chambarchas bog'langan, uning mustaqil bir tarmog'idir. Metodika pedagogik jihatdan yaxshi natijalarga erishish maqsadida ham tarix o'qitish jarayonini ham, pedagogik jarayon o'qitishda yaxshi natijalarga erishishni ko'zda tutadi. O'qitish jarayoning o'rgatish metodlari pedagogik metodlar bo'lib, o'qitish natijalarining ko'rsatkichlari ham pedagogik ko'rsatkichlardir. Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi pedagogika fanining mustaqil bir tarmog'i bo'lib, u o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Metodika fanining nazariy qismini egallash

tarix o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va kamol toptira borish ishini yanada takomillashtirish maqsadida foydalanishga yordam beradi.

Tarix ta'limining mazmuni va sinf o'quvchilarining umumiy saviyasiga qarab bilishning umumiy qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi. Tarix o'qitish metodikasi o'rganadigan eng muhim qonuniyatlardan biri o'qitish jarayonining rivojlanish qonuniyatlaridir. Bu rivojlanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, ko'nikma, malakalari hamda tafakkurining o'sib borishida namoyon bo'ladi, ayni bir vaqtda o'quvchilarning har tomonlama yanada kamol topishini ta'minlaydi. Tarixning har bir kursi, uning bo'limi va har bir mavzusi o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi va kamol topishida muhim bir bosqich bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, o'qituvchi tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalarni egallashi, kamol topishi sohasida bosib o'tilgan bosqichlarni, bunday keyin bosib o'tiladigan bosqichlarni oldindan ko'ra bilishi lozim. Bunga faqat tarix o'qitishning ilmiy asoslarini puxta egallash va amalda unga suyangan holda ish tutish asosidagina erishish mumkin.

Tarix o'qitish deganda - tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni - tarix dasturida belgilangan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali: uning asl mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko'zda tutiladi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish - tarixni o'qitish va o'quvchilarning uni o'rganishni tashkil etish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchilarning boshqarishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish ularni ijodiy bilishga yo'naltiriladigan topshiriqlar sistemasi hamda ta'limning turli xil formalari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.

O'qitishning natijalari - o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvafaqqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o'quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o'zlashtirishlari shu asosda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi. Takrorlash uchun savollar

- 1.Tarix o'qitish metodikasini maqsadi.
- 2.Tarix o'qitish metodikasini predmeti.
- 3.Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari
- 4.Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlarining aloqalari.
- 5.Tarix kursining ta'limiy vazifalari.
- 6.Tarix o'qitish metodikasini boshqa fanlar bilan aloqalari.

Asosiy adabiyotlar va manbalar:

1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.T.,2008.
2. Karimov I.A.O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T., 1992.
3. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., 1998.
4. Mirziyoev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston". 2017.
- Ishmuhammedov.R., Abduqodirov. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.,2008.
5. M.Tojiboyev, Z. Ilhomov. O'zbekiston tarixini o'qitishning metodologiyasi.T., 2003. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: CHo'lpon, 2005.
1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
3. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
4. Voinova M.G. Pedagogicheskie tehnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.
5. Guzeev V. V. Integralnaya obrazovatel'naya texnologiya. – M., 1999.
6. Guzeev V.V. Obrazovatel'naya texnologiya: ot priema do filosofii. M.: Sentyabr,1996.
7. Guzeev V.V. Planirovanie rezultatov obrazovaniya i obrazovatel'naya texnologiya.- M.: Narodnoe obrazovanie, 2000.
8. Dyachenko V.K. Novaya didaktika. – M., 2001.
9. Jukova E.D. Texnologiya organizatsii i realizatsii samostoyatel'noy raboty studentov : rabochaya tetr. – Ufa : Izd-vo BGPU, 2004.
10. Kashlev S. S. Sovremennye tehnologii pedagogicheskogo protsessa. Mn.: "Universitetskoe", 2000.

11. Kolesnikova I. A. Pedagogicheskoe proektirovanie: Ucheb.posobie dlya vyssh. ucheb. zavedeniy / M: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2005.
12. Levina M.M. Texnologiya obucheniya, rol v strukture pedagogicheskogo znaniya. (Razrabotka i vnedrenie gibkix texnologiy obucheniya pedagogicheskimi dissiplinami). M.: MGPI, 1991.
13. Levites D.G. Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii. Novosibirsk, 1999.
14. Monaxov, V.M., Baxusova, E.V., Vlasov, D.A. Pedagogicheskie texnologii kak didakticheskiy instrumentariy modernizatsii obrazovaniya. – M. – Tolyatti: VUiT, 2004.
15. Monaxov, V.M., Baxusova, E.V., Oleynikova, I.A. Pedagogicheskaya texnologiya V.M.Monaxova ot A doYA: samouchitel proektirovaniya uchebnogo protsessa: Lipetsk: IRO, 2007.
16. Новые pedagogicheskie i informatsionnyye texnologii v sisteme obrazovaniya: Ucheb. posobie dlya ped. vuzov i sistemy povysh. kvalif. ped. kadrov Pod red. E.S. Polat. – M.: Izdat. sentr «Akademiya», 2001.
17. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
18. Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatelnykh texnologiy: V 2 t. T.1. – M.: NII shkolnykh texnologiy, 2006.
19. Serikov V. V. Obuchenie kak vid pedagogicheskoy deyatel'nosti: uchebnoye posobie dlya vuzov / V. V. Serikov; pod red. V. A. Slastenina, I. A. Kolesnikovoy. – M.: Akademiya, 2008.
20. Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii: uchebnoye posobie/pod red. N.V. Bordovskoy. – M.: KNORUS, 2010.

Internet ma'lumotlari

1. www.press-service.uz
2. www.gov.uz
3. www.infocom.uz
4. <http://www.bank.uz/uz/publisVdoc/>
5. www.press-uz.info
6. www.ziyonet.uz
7. www.edu.uz
8. www.pedagog.uz

IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-амалий машғулот: Tarix o'qitishda yangi pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va malakalarni oshirib borishi. (2 soat)

Reja:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning turlari
2. Tarix darslarida o'quvchiga yondoshish bo'yicha texnologiyalar
3. Tanqidiy fikrlash metodlari.
4. O'qitishning interaktiv metodlari

Tayanch so'z va iboralar

Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning aspektlari, Tarix darslarida o'quvchiga yondoshish bo'yicha texnologiyalar, tanqidiy fikrlash metodlari.

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning turlari

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, gumanitar bilimlar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham.

“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug'atlar talqini bo'yicha (techne san'at, hunar, fan; logoq – tushuncha, ta'limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to'plami demakdir. Texnologiya shu bilan birga jarayonni bilish san'atini ham o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operastiyalar ma'lum ketma-ketligini ko'zda tutadi. Texnologiya prostessual mazmunda “qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?” degan savolga javob beradi.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi o'qitish nazariyasidan keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi.

XX asrning 20-yillarida “pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo'yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik enstiklopediyada 30-yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan.

O'tgan asrning 40-50-yillarida, o'qitish - o'quv jarayonlariga texnik vositalarni

tatbiq etish boshlanganida, “ta’lim texnologiyasi” termini paydo bo’ldi, u keyingi yillar davomida “pedagogik texnologiyaga” aylantirildi.

60-yillar o’rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferenstiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Franstiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish darajasiga qarab ikki yo’nalishi belgilandi.

Birinchi yo’nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o’qitish vositalarini qo’llash zarurligini ta’kidladilar (technology in education).

Ikkinchi yo’nalish tarafdorlari esa o’quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g’oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo’qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo’nalish “o’qitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo’nalish “o’qitish texnologiyasi” yoki “o’quv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi o’quv uskunalarini va o’quv vositalarini modernizastiyalashtirish zarurligi anglab etildi. Bularsiz o’qitishning sifatli va samaradorligiga erishib bo’lmas edi.

60-yillar o’rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug’ullanuvchi jurnallar nashr etilar edi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug’ullana boshlaydi.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’limda ko’zlangan natijalarga erishish bo’lgan chet el pedagogikasining yo’nalishiga aytiladi (M. Klarin, 1989) milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o’qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq “texnologiya” termini hozirgi kunda juda keng tarqalgan.

“Pedagogik texnologiya” so’z birligi – bu inglizcha “*an educational technology*” – “ta’lim texnologiyasi” iborasining aniq bo’lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o’qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda. Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termini va uning “o’qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta’lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko’plab ifodalarga ega bo’ldilar (uch yuzdan ortiq).

“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo’yicha ishlarda - XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasini turlicha ifodalash mumkin:

1. Texnologiya – bu biron-bir ishda, mahoratda, san’atda qo’llaniladigan uslublar to’plamidir (talqinli lug’at).

2. Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir (V.P. Bespalko).

3. Pedagogik texnologiya – bu o'qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P. Volkov).

Pedagogik texnologiya – bu o'qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to'plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T. Lixachev).

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini optimallashtirish masalasini qo'yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olib o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashga sistemali yondashishdir (YuNESKO).

Texnologiya – bu san'at, mahorat, mohirlik, ishlab chiqish metodlari to'plami, holatini o'zgartirishdir (V.M. Shepel).

O'qitishi texnologiyasi - bu o'quvchilar va o'qituvchilar uchun so'zsiz qulay sharoitlar yaratib berish bilan o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo'yicha har tomonlama o'ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M. Monaxov).

Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T. Sakamoto).

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o'zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasidir (E. Bistereki va J. Seller).

Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarni sistemali to'plami va ishlatilish tartibini bildiradi (M.V. Klarin).

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchining faoliyatini sistemali, kosteptual, qoidali, ob'ektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A. Fradkin).

Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta'minlashni taxlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g'oyalar, vositalarni o'z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikastiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSh assostiastiyasi).

Barcha xalqlarda hamma vaqt yaxshi tayyorlangan mutaxassislar, o'z ishining ustalari hurmat qilingan, mahorat bilan mohirona o'qitish ham yuksak baholangan.

Pedagogika fani tarixida o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O'qitish – bu uning jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darxol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab

chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi bilangina farq qilmaydi.

Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan "pedagogik davrlarni" ko'rib chiqamiz:

1. Individual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);
2. O'quv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);
3. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari)
4. O'qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).
5. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterni o'qitish).

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi uchta aspektlar bilan taqdim etilishi mumkin:

Ilmiy pedagogik texnologiya - o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o'rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismidir.

prostessual-ta'rifiy: jarayonni tasvirlash o'qitishning ko'zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar va maqsad, metodlar to'plami.

prostessual-amaliy: texnologik jarayonni amalga oshirilishi, hamma shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga solinishi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o'qitishning eng samarali yo'llarini izlovchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'llaniladigan usullar, printsiplar va boshqaruvlar sistemasi sifatida ham, o'qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi.

2 Tarix darslarida o'quvchiga yondoshish bo'yicha texnologiyalar

Avtoritar texnologiyalar, bunda pedagog o'quv-tarbiyaviy jarayonning yakka sub'ekti hisoblanadi, o'quvchi esa faqatgina "ob'ekt", biror-bir qismdek bo'ladi. Ular maktab hayotini qat'iy tashkil etilishi, o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligiga yo'l qo'ymaslik, talab va majburlash qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Didaktostentrik texnologiyalar ham bola shaxsiga e'tiborsizlik yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ularda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sub'ekt-ob'ektli munosabatlar hukm suradi, o'qitish ta'limdan ustun qo'yiladi va shaxsni shakllantirish eng asosiy omillari didaktik vositalar hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar butun maktab, o'rta maxsus ta'lim tizimi markaziga bola shaxsini, uning rivojlanishi uchun qulay, kelishmovchiliklarsiz va xavfssiz sharoitlarni ta'minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirishni

qo'yadi. Bu texnologiyada bola shaxsi faqatgina ob'ekt emas, balki muhim sub'ekt hamdir: u biror-bir noaniq maqsadga erishish vositasi emas, balki ta'lim tizimi maqsadi hisoblanadi (avtoritar va didaktostentrik texnologiyalarida bo'lganidek). Bunday texnologiyalarni yana antrostentrik deb ham ataydilar.

Shunday qilib, shaxsga-yo'naltirilgan texnologiyalar antrostentrikligi, insonparvarligi va psixoterapevtik yo'nalganligi bilan ifodalanadi va bolaning har tomonlama, erkin va ijodiy rivojlanishi maqsad qilib oladi.

Shaxsga-yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida insonparvarlik0shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari va erkin tarbiyalash texnologiyalari mustaqil yo'nalganligi bilan ajralib turadi.

1) Insonparvarlik-shaxsiy texnologiyalar_birinchi navbatda o'zining insonparvarlik mohiyati, shaxsni qo'llashga psixoterapevtik yo'nalganligi, unga yordam ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Ular bolaga har tomonlama hurmat va muhabbatni, majburlashni rad etib uning ijodiy qudratiga ishonchni targ'ib qiladi.

2) Hamkorlik texnologiyasi, o'qituvchi va bola o'rtasidagi ob'ekt-sub'ektiv_munosabatlarda demokratiklik, tenglikni, hamkorlikni amalga oshiradi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda maqsad, mazmunni ishlab chiqadilar, hamkorlik va birgalikda ijod holatida bo'lib baho beradilar.

3) Erkin tarbiya texnologiyalar bolaning hayotiy faoliyati doirasida ko'pmi ozmi tanlashi va mustaqilligi erkinligi berishga e'tiborni qaratadi. Tanlovni amalga oshirib bola natijalarga tashqi ta'sir ostida emas, balki ichki tuyg'ulari orqali boradi, u sub'ekt nuqtai nazarini eng yaxshi uslub bilan amalga oshiradi.

2. Tanqidiy fikrlashning faol metodlari.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar "Demokratik ta'lim uchun" konsorstiumi tomonidan amalga oshiriladigan "Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Tanqidiy fikrlash nima?

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2. O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik, 1987).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash "yakkayu yagona to'g'ri javob"ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;

talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;

turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;

talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;

har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;

o'quv jarayonida faol ishtirok etish;

turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;

o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979) lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va
o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish ongillik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi. Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini seza-dilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivastiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur

mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarining o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr olishuv. Fikrlash jarayoni talabalarining o'zaro fikr olishuvini ko'zda tutadi. Talabalarining o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o'ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr olishish;
- o'zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izohli idrok etish. Bu Blum izohlari darajasiga aylandir. Idrokning bu tipida talaba g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy

tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'riligini, foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni echish imkoniyatini beradi:

talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;

mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;

samarali munozaraga chorlaydi;

talabalarning o'zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;

talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;

talabalarning shaxsiy mutolaasi motivastiyasini qo'llab-quvvatlaydi;

har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;

talabalarda personajlarga bo'ladigan izzatini o'stirishga yordam beradi;

talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;

O'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab sifatida xizmat qiladi

talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. "Texnologiya" tushunchasining lug'aviy ma'nosini ayting
2. Texnologik jarayonga ta'rif bering
3. Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini tushuntiring
4. Pedagogikaning texnologik vazifasini aniqlang.
5. Pedagogik texnologiyaning tarix o'qitish metodikasidagi o'rnini aniqlang.
6. Pedagogik texnologiyaning turlari

Pedagogik texnologiya jarayonini tashkil etish mezonlari

**2-амалий машғулот: Та’лим тарбия jarayonida pedagogik
texnologiyalarin qo‘llash
(2 coat)**

REJA:

1. Muammoli izlanish xarakterdagi suhbat, muammoli bayon, muammoli amaliy metodlar.
2. “Aqliy hujum” va munozarali darslarni tashkil etish va o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari
3. Ilmiy munozara va erkin fikrlash darslari.

Tayanch iboralar: Muammoli izlanish xarakterdagi suhbat, muammoli bayon, muammoli amaliy metodlar. “Aqliy hujum” va munozarali darslarni tashkil etish va o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy munozara va erkin fikrlash darslari.

**Muammoli izlanish xarakterdagi suhbat, muammoli bayon,
muammoli amaliy metodlar.**

Mustaqil faoliyat muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi sxemada keltirilgan mustaqil ish turlari bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Talaba tomonidan mustaqil ravishda javob yozishni (referat yoki hisobot shaklida) talab etuvchi savollar ishlab chiqiladi. Talabaniing ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqiladi. Mustaqil ishlarni uch turga ajratish mumkin: Yozma mustaqil topshiriqlarga quyidagilar kiradi: hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to‘ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to‘g‘risida hisobotlar tuzish, turli organayzerlar aosisda talabalar faoliyatini tashkil etish va b.

Grafik mustaqil topshiriqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: turli loyihalarni tayyorlash chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash,

(ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va x.z), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Amaliy harakterdagi mustaqil topshiriqlarga quyidagi vazifalarni kiritish mumkin: O'quvchilar pedagog topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida buyum va mahsulotlarni tayyorlash, jihoz va asbob-uskunalarni ta'mirlash, mahsulotga ishlov berish, hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar.

Mustaqil ishlarni individual - didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham 4 guruhga ajratish mumkin:

1) Bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda o'quvchilarmaqсадga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar - axborotlarni, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

2) O'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish va qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda avval egallangan bilimlarni to'g'ri jalb qilish, faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar beriladi.

3) Avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtai nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda masalaning mohiyatini izlash, yangicha yechimlar topish, yangicha g'oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar beriladi.

4) Ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar.

Bunda, yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsada, ungacha boshqacha nuqtai nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya'ni axborotlar to'plash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi.

Bugungi kunda malakali mutaxassis tayyorlash jarayonini mustaqil ishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, aynan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash reflekslari rivojlantiriladi. Ammo mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar va muammolar ham mavjud:

1. Tarqatma materiallarni tayyorlash masalasi. Pedagog tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar har bir talaba uchun ko'paytirilishi lozim. Guruhda o'quvchilar soni o'rtacha 20 ta bo'lishi mumkin. Har bir tarqatma materialni 20 tadan ko'paytirish uchun ma'lum mablag' talab etiladi. Pedagog har gal o'z hisobidan mablag' ajartish imkoniga ega emas.

2. Dars jarayonida tashkil etiluvchi mustaqil ishlarni ba'zan kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish usulidan foydalangan holda o'tkazish talab etiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlashga qulay auditoriyalar talab etiladi, ammo bunday imkoniyatlar oliygohlarda hozircha yo'q.

3. Ko'pchilik pedagoglar mustaqil ishlarni tashkil etish mahoratiga ega emas.

4. Mustaqil ishlarni bajarish uchun o'quvchilar talab etiluvchi bilimlar bilan yaxshi

qurollangan, mavzuni chuqur o'zlashtirgan bo'lishilari lozim. Agar ma'ruza darsida talaba yetarli tushunchaga ega bo'lmagan bo'lsa, u topshiriqni ijobiy xal etish imkoniga ega bo'lmaydi. Shuning uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda avvalam bor bilimlarni faollashtirish, eslash, korrektirovka qilish va yagona xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

Mustaqil faoliyatni tashkil etish jarayonida o'qituvchi ko'proq didaktik materiallardan foydalanadi. Didaktik materiallarga O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o'yinlar, krassovordlar kabi materiallar kiradi (1- rasm).



1-rasm. Didaktik materiallar.

Shuningdek o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallar, kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, amaliy ishni tashkil etish buyicha texnologik xaritalar kiradi.

Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Muammolarni hal qilishga yunaltirish;
2. Tadqiqotlar olib borishga yunaltirish;
3. Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish;
4. Tajribalar va mashqlar o'tkazishga mo'ljallash;
5. Yangiliklarni izlash va topishga yo'naltirish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda "oddiydan-murakkabga" hamda "umumiydan-xususiyga", "mavhumdan-aniqlikka" qarab harakatlanishni ta'minlash lozim.

Auditoriyada mustaqil faoliyatni tashkil etishga oid yuqoridagi talabalar tizimi bilan tanishib chiqqach, o'qituvchi auditoriyada olib borish mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar bilan tinglovchilarni tanishtiradi (Organayzerlar, interfaol

metodlar, mustaqil topshiriqlar).

Tinglovchilarni bir necha guruhga bo'лади va har bir guruhga alohida vazifa topshiradi. Har bir guruh o'ziga topshirilgan vazifa bo'yicha taqdimot tayyorlaydi.

Tavsiyalar:

Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga bag'ishlangan topshiriqni bajarish vaqtida har bir guruh quyidagilarni bajarishi lozim:

- o'z sohasi bo'yicha mavzu tanlashi kerak;
- mavzuga mos bo'lgan mustaqil faoliyatni tashkil etishning ikki optimal metodini tanlashi;
- tanlangan metod asosida qanday ko'nikma va malakani shakllantirmoqchi ekaniga izox berish;
- vazifani bajarishga qancha vaqt ajratilganligini belgilash;
- topshiriqni baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- tanlangan metod asosida talaba o'rnida o'zi faoliyat ko'rsatib vazifani bajarish;
- topshiriq natijalari bo'yicha taqdimot tayyorlash.

Har bir guruh taqdimoti boshqa guruhlar tomonidan tahlil qilinadi va, yutuq hamda kamchiliklar aniqlanib, baholanadi.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g'oya yotadi va muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quyidagicha ko'rinishga ega bo'лади:

- muammoli vaziyat;
- muammoni yechish yo'llarini izlash;
- muammoning yechimi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va darslik bilimning asosiy manbasi bo'lsa, muammoli o'qitishning falsafasi va metodologiyasida o'qituvchi o'quvchilarning izlanish-tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchisi va yordamchisi sifatida ko'radi. Bu rol an'anaviy o'qitishdagi roldan ancha murakkab bo'lib, u o'qituvchidan yuqoriroq mahorat talab qiladi.

Muammoli o'qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o'qituvchi o'zi yechishi lozim bo'lgan ziddlikni ko'rishidan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

Muammoli o'qitish asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog J. Dyui g'oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab, o'z- o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J. Dyui o'qish

uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar.

Muammoli ta'lim haqidagi to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko'rinishga ega.


Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.

Muammoning qo'yilishi.

Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlanishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:



Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, o'quvchining muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish va bilimga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli ta'lim nazariyasida muammoli vaziyatning ikki turi mavjud:

Psixologik muammoli vaziyatlar.

Pedagogik muammoli vaziyatlar.

Psixologik muammoli vaziyatlar o'quvchi faoliyatiga, pedagogik muammoli vaziyatlar o'quv jarayonining tashkil etilishiga taalluqli.

Muammoli vaziyatlarning bu ikki turi bir-birini taqozo etadi. Pedagogik muammoli vaziyatlar o'quvchidan faqat fikr yuritishnigina talab qilmay, balki bilish munozarasida ishtirok etish, u yoki bu hodisa haqidagi hayotiy va ilmiy tasavvurlarni qiyoslash, olimlarning nuqtai nazarlarini taqqoslash, shuningdek, ularning qiziqishlarini orttirish maqsadida dars davomida yangi dalillarni ma'lum qilish, mazkur dalillarning fan-texnika rivoji uchun ahamiyatini yoritish, ajablanarli dalillarni bayon etish orqali vujudga keltiriladi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagilarni hal qilishi kerak:

O'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar va topshiriqlarni aniqlashda didaktikaning ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilish;

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlash, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarni belgilash zarur.

Muammoli vaziyatlarning bir qancha turlari bor. Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish o'qituvchining mahoratiga, bilimi va pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholay olish malakasiga bog'liq.

DARSDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI YARATISHGA MISOLLAR

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda o'qituvchi o'quvchilar o'z diqqatlarini nimalarga qaratishlari kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir.

Masalan: **«Chor Rossiyasining Xiva xonligini bosib olishi» (O'zbekiston tarixi)** mavzusida o'quvchilar diqqatini ikki muammoga qaratish zarur. Buning uchun o'qituvchi:

1. Xiva xonligining bo'ysundirilishi Rossiyaga qanday manfaat keltirar edi? degan savolni qo'yib muammoli vaziyatni yaratadi va o'quvchilarning fikrlarini eshitadi. Barcha fikrlarni eshitgach savolga yakuniy xulosani e'lon qilishi kerak.

2. Turkmanlarning qo'zg'olonini tahlil qiling. Nima uchun qo'zg'olon yengildi? Bu savol bilan o'qituvchi ikkinchi muammoli vaziyatni vujudga keltirdi. O'quvchilar yechim jarayonida o'qituvchi bilan birga harakat qilib, muammo yuzasidan fikr va mulohazalarini bayon etib, muammoning yechimiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Muammoni yechish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga eng zarur fikrni aytmaydi, ammo shu fikrni shakllantiruvchi dalillarni, faktlarni keltirib o'tishi kerak bo'ladi.

«Oliy Majlisning Qonunchilik faoliyati» mavzusida

-Qonunni ishlab chiqishda kimlar ishtirok etadi?


-Oliy Majlis qabul qilgan qonunlardan qaysilarini bilamiz? kabi savollar bilan ham muammoli vaziyat yaratish mumkin.

O'qituvchi muammoni qo'yganda o'quvchilarga muammoni yechishga doir ko'rsatmalar, yo'llanmalar beradi va ish natijalarini baholash mezonlarini e'lon qilishi kerak. Muammoning murakkablik darajasi o'quvchilarning bilimiga qarab belgilanadi. Shuningdek, muammoni hal qilishda kerak bo'ladigan ma'lumotlar yetarli darajada bo'lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, muammoli o'qitish o'qituvchidan alohida mahorat talab qiladi va uni hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshirib bo'lmaydi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, bu muammoni hal qilish uchun o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikr yuritishga jalb qilish o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilar manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishga o'rganadi. Muammoli ta'limni tashkil qilish esa o'qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi sifatida amalga oshiriladi.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi o‘quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. O‘quvchilar qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishi kerak, chunki muammoni yechimini topa olmasa o‘quvchilarning qiziqishlari so‘nishi va bolalar o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:



Tarix darslarida “Muammoli vaziyat” metodini qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

O‘qituvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi, muammoni bayon qiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni topshiriqning vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi va o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar va muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar. Barcha guruhlar muammoni sabablarini o‘rganib chiqqach, taqdimot o‘tkazadilar. Barcha guruhlardagi muammoning sababalari to‘g‘risidagi bir xil fikrlar jamlanadi.

Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida guruhlar muammoning kelib chiqish mumkin bo‘lgan oqibatlarini ishlab chiqadilar va o‘z ishlarini taqdimotini o‘tkazadi. Taqdimotdan keyin bir xil fikrlar yana jamlanadi.

Endi guruhlar muammoni yechishning turli yo‘llari va imkoniyatlarini

muhokama qiladilar, tahlillar o'tkazadilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar va uni taqdimotini o'tkazadilar.

Barcha guruhlarining taqdimotidan keyin bir xil yechimlar jamlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechishning eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Masalan: "O'zbekiston tarixi" fanidan "XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda iqtisodiyot va savdning rivojlanishi" mavzusini o'rganishda "muammoli vaziyat" metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu mavzuda asosiy muammo Chor Rossiyasini Turkiston bilan iqtisodiy munosabatlari muammosi bo'lib, o'qituvchi ushbu muammo asosida muammoli topshiriqni qo'yadi. Muammo: "Turkistonda "paxta talvasasi" muammosi", uning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, uning o'sha davrdagi yechimi va bugungi kundagi holat haqida o'quvchilarning mustaqil fikrlari va ularning ushbu muammoni yechish haqidagi taklif variantlari o'rganiladi.

1 bosqich: O'qituvchi muammoni e'lon qilgan, o'quvchilarni 4 ta kichik guruhga ajratadi va barcha guruhlar muammoning kelib chiqish sababalarini tahlil qiladilar. Bunda "O'zbekiston tarixi" darsligidagi matndan ham foydalanish tavsiya etiladi.

2 bosqichda guruhlar taqdimoti o'tkaziladi. Har bir guruhga 3 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlar taqdimoti tugagach bir xil fikrlar jamlanadi. Muammoning asosiy sababi quyidagilar ekanligi aniqlanadi:

- O'rta Osiyoning harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan geografik joylashuvi;
- XIX asr oxirida Amerika paxtasining narxini oshishi;
- Amerika paxtasining Rossiyaga tashib keltirilishini qimmatga tushishi;
- Turkistonda yer maydonlarining ko'pligi va ishchi kuchining arzonligi;
- Toshkent yaqinida tajriba seleksiya bazasining tashkil etilganligi;
- Rossiyalik tijoratchilarni Turkiston iqtisodiyotiga sarmoyalarini sarflashni boshlanishi;

- Turkistonda Rossiya banklari tizimining kengayishi va ularni paxtachilik bilan bog'liq sohalarga kredit, ssuda, qarz berishni o'z qo'lida to'plaganligi;

- Turkistonni Jahon kapitalistik xo'jalik tizimiga agrar xomashyo kuyrug'i sifatida tortilishi;

3 bosqichda kichik guruhlar "paxta talvasasi" muammosining oqibatlarini tahlil qiladilar va guruh taqdimotini tayyorlydilar. Vaqt 6 minut. Taqdimot uchun vaqt 2 minutdan. Taqdimot yakunida barcha guruhlardagi bir xil fikrlar jamlanadi. Bu fikrlar:

- Turkiston Rossiyaning paxta mustaqilligini ta'minladi;
- 1884 yilda Amerika va mahalliy paxta navini chatishtirish natijasida a'lo sifatli yangi paxta navi yaratildi;

-Paxta agrosanoat majmuasi vujudga keldi, paxta maydoni-paxta tozalash zavodi (Turkistonda)-to'qimachilik fabrikasi (Rossiyada);

-Paxta integratsiyasi yirik savdo sanoat kompaniyalarini paydo bo'lishiga olib keldi;

-Turkiston qishloqlari tovar ishlab chiqaruvchiga aylandi;

-Chorakorlar va mardikorlar qishloqda paxta yetishtirishda asosiy ishchi kuchiga aylandi;

-Turkistonlik mahalliy mayda yer egalarining qashshoqlashuvi va kasodga uchrashi tezlashib, yerlar yirik mulkdorlar tomonidan arzon garov sotib olindi;

-Turkistonda g'alla yetishtirish keskin kamayib ketdi, natijada o'lka Rossiyadan keltiriladigan oziq ovqat mahsulotlariga bog'lanib qoldi;

-mayda hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchradi va hunarmandlar ishsizlar safini to'ldirib bordi;

-Rossiya kapitali mahalliy sanoatni sindirib, o'z mahsuloti uchun bozor yaratdi;

-O'lkaning qoloqligi va aholining qashshoqligi odatiy holga aylandi va Chor Rossiyasining tartiboti va tuzilmalari zo'ravonlik bilan o'rnatildi.

4 bosqichda o'quvchilar o'z guruhlarida muammoni yechishning turli imkoniyatlarini tahlil qilib, yechim variantlarini ishlab chiqadilar. Barcha guruhlarining taqdimotidan so'ng barcha guruhlardagi bir xil yechim yo'llari o'qituvchi rahbarligida tanlab olinadi. Bular quyidagilar:

1 yechim yo'li. Turkiston aholisini dunyoqarashini o'zgartirish va savodxonligi oshirish yo'li bilan mustamlaka siyosatini, iqtisodiy qaramlikni bartaraf etish mumkin edi. Buning uchun Turkiston fuqarolarida milliylik va vatanparvarlikni shakllantirish kerak edi.

2 yechim yo'li: Turkistonni tashqi dunyodan uzib qo'yilganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, mahalliy boy savdogarlar o'z manfaatlarini millat manfaatidan ustun qo'ymasdan, qishloqlarni rivojlantirishga mablag' sarflaganda, qishloqda mahalliy sanoatni rivojlantirishga ahamiyat qaratganda "paxta talvasasi" yillarida mayda hunarmandchilikni kapital mablag'lar bilan ta'minlash imkoni bo'lar edi.

3 yechim yo'li: Turkiston paxtasi faqat Rossiyaga jo'natilmasdan, paxta tolasiga ehtiyoji bor boshqa davlatlarga ham sotilishi yo'lga qo'yilishi, ya'ni Turkistonni tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarini rivojlantirishga mahalliy millat yetakchilari ko'proq ahamiyat qaratishi lozim edi. Rossiya kapitaliga qarshi tura olish uchun mahalliy kapital mablag'lari birlashtirilganda, o'lkaning iqtisodiy mustaqilligini qayta tiklash imkoniyati yaratilar edi va h.k.

O'qituvchi darsning yakuniy xulosalarini o'quvchilar bilan birgalikda yaratadi hamda guruh ishlarini va ishlash jarayonidagi o'quvchilarning faoliyatini baholaydi.

Tarix darslarida ushbu metoddan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi, muammoning sabab, oqibat va

yechimlarini topishga o'rgatadi. Shuningdek, o'quvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi, o'quvchilarni tizimli fikrlashga, har qanday hatti-xarakatning natijalarini tahlil qilishga o'rgatadi. Dars jarayonida motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

MUAMMO TEXNOLOGIYASI

“Muammo” texnologiyasi o'rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni o'quvchilar tomonidan mustaqil hal etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Masalan, O'zbekiston tarixi fanidan “Xorazmshohlar saltanatining Mo'g'ullar davlati bilan munosabatlari” mavzusini o'rganish jarayonida ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu mavzuda “Mo'g'ullar bosqini arafasida Sulton Muhammad Xorazmshoh davlatining boshqaruv tizimidagi urug'-aymoqchilik muammosi”ni berilgan jadval asosida har bir o'quvchi darslikdagi matndan foydalangan holda, mustaqil tahlil qilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida tinglovchilar 4 guruhga bo'linadi va guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh uchun topshiriq:

Muammoning turi	Muammoning sabablari va ko'rinishlari	Muammoni hal etish uchun harakatlar
Mo'g'ullar bosqini arafasida Sulton Muhammad Xorazmshoh davlatining boshqaruv tizimidagi urug'-aymoqchilik muammosi		

2-guruh uchun topshiriq:

Muammoning turi	Muammoning sabablari va ko'rinishlari	Muammoni hal etish uchun harakatlar
Sulton Muhammad Xorazmshoh va mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi muammo		

3-guruh uchun topshiriq:

Muammoning turi	Muammoning sabablari va ko‘rinishlari	Muammoni hal etish uchun harakatlar
Xorazm davlatining mudofasini tashkil etish muammosi		

4-guruh uchun topshiriq:

Muammoning turi	Muammoning sabablari va ko‘rinishlari	Muammoni hal etish uchun harakatlar
Sulton Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon o‘rtasidagi munosabatlar muammosi		


**Муаммоли таълим тури илмий-услубий
жиҳатдан 3 хил кўринишга эга.**

- **1.Муаммоли вазиятни вужудга келтириш.**
- **2.Муаммонинг қўйилиши.**
- **3.Муаммонинг ечимини топиш.**
- Муаммоли вазиятни ўқув машғулотларининг барчасида шакллантириш мумкин. Уни дарс жараёнида қанча кўп шакллантириш ўқитувчига боғлиқ. Муаммоли вазиятнинг аҳамияти шундаки, у ўқувчилар диққатини бир жойга (муаммога) қаратади ва ўқувчиларнинг изланишига, фикрлашга ўргатади.
- Муаммоли таълим ўқитувчи раҳбарлигида муаммоли вазият вужудга келтирилиб, мазкур муаммо ўқувчиларнинг фаол, мустақил фаолияти натижасида назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни ижодий ўзлаштириш ва ақлий фаолиятни ривожлантиришга имкон берадиган таълим жараёнини ташкил этишни назарда тутди.

Тузувчи:п.ф.н.доц.
М.Т.Жуманиёзова



Муаммоли вазиятнинг турлари



Тузувчи: п.ф.н.доц.
М.Т.Жуманиёзова

“МУАММОЛИ ВАЗИЯТ” МЕТОДИ

“Муаммоли вазият” методи таълим олувчиларда муаммоли вазиятларнинг сабабини ва оқибатларини таҳлил қилиш ҳамда уларнинг ечимларини топиш бўйича кўникма ва малакаларни шакллантиришга қаратилган метод.

- **“Муаммоли вазият” методининг таркибий тузилиши** қуйидагича:
- **Муаммоли вазият тавсифини келтириш**
- **Ўқувчиларни гуруҳларга бўлиш**
- **Гуруҳлар муаммоли вазиятнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлаши**
- **Гуруҳларнинг муаммоли вазиятни оқибатлари тўғрисидаги фикрларини жамланиш босқичи**
- **Гуруҳларни муаммоли вазиятни ечимини ишлаб чиқиш босқичи**
- **Тўғри ечимларни танлаш босқичи**

Тузувчи: п.ф.н.доц.
М.Т.Жуманиёзова

МУАММО ТЕХНОЛОГИЯСИ

- “Муаммо” технологияси ўрганилаётган мавзудаги асосий муаммони ажратиб олиш ва муаммони ўқувчилар томонидан мустақил ҳал этилишини таъминлашга хизмат қилувчи технологиялардан бири ҳисобланади. Бунда
- **Муаммонинг тури**
- **Муаммонинг сабаблари ва кўринишлари**
- **Муаммони ҳал этиш учун ҳаракатлар белгиланади**

Тузувчи: п.ф.н.доц.
М.Т.Жуманиёзова

V. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Davlat ta'lim standarti State education standard	O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standarti asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi.	The Republic of Uzbekistan "Education Law" On the same standard of education as well as the main instrument.
Standart standard	ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi	English translates as 'the norm " model " default ', 'model' means
Ta'lim education	o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularni amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon	The theoretical basis of their abilities and skills of the process aimed at the education of their learning abilities and horizons
Dars lesson	bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli	directly to a specific group of students under the guidance of a teacher in the learning process with the main
Bilim knowledge of	idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni	perception, learning, training and specific experience and behavior on the basis of skills, strengthened, and the available information to be improved and enriched process
Ta'lim jarayoni education process	o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon	teachers and between the students and the educational process aimed at the development of scientific knowledge
O'quv dasturi the science curriculum	ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba	education programs and specific expertise in the field of science or knowledge bases, including source
Ta'lim mazmuni The content of education	davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati	determined on the basis of the state educational standards and specific terms the nature of scientific knowledge provided by the development of specific subjects
Didaktika didactics	ta'lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» "o'rgatuvchi", «didasko» esa – "o'rganuvchi" ma'nosini bildiradi	Learning Theory: Greek didaktikos "training", didasko - the "investigation" means
person	kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir	The subject of the training system in the field of education facilities and services, and the doer
state and society	ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir	education and training system to regulate and control the activities of carrying out personnel training and guarantee their acceptance
Uzluksiz ta'lim continuing education	malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.	training of qualified competitive basis, all types of education, state educational standards, as well as the structure of the system and its operating environment.
Umumiy o'rta ta'lim	to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-	the nine-year compulsory nature of the three-year voluntary nature of

General secondary education	ixtiyoriy xarakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat	secondary special and vocational education
Akademik litsey academic litsey-	o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir	students' opportunities and interests, taking into account the rapid development of the intellectual depth sohalashtirilgan, differentiated, work-based learning in order to ensure that in accordance with state educational standards of secondary education, the legal status of education institution
Kasb-xunar kolleji Vocational College	o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir	students of vocational aptitude, knowledge and skills to develop a deep chosen profession in order to create one or more special place within the state educational standards of secondary special and professional education, the legal status of education institution
Oliy ta'lim higher education	o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi	based on secondary vocational education, two-stage (bachelor and master), where the various branches of the specialty areas of public higher education and training. Institutions of higher education students to receive grants from the state and paid on the basis of the treaty on the basis of
Bakalavr bachelor's	mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim	specialties in the direction of basic and applied knowledge, training will continue for at least four years of higher education
Magistr master's	aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi	bachelor of basic and applied knowledge, on the basis of a bachelor timeout will continue for at least two years of higher education, master's studies are carried out in accordance with the certification of the final state klassifikatsion
science	yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalar bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqei va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi	highly qualified specialists and manufacturer of advanced educational and information technologies, and the development of society and the nature of the system of training of national laws on the use of new fundamental knowledge and practical development of highly qualified scientific and scientific-pedagogical staff, education system effectively use, as well as the training process to create a research infrastructure, education, information networks and the development of the knowledge base of knowledge in various fields of scientific research is the basis for new approaches to the level of young scientists, scientific, educational, social status and reputation, and will not cover, etc.
Malaka	deganda muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashgan shakli	Understanding the form of automated means to perform a certain action or

qualification	tushuniladi. Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilar kiradi	activity. General knowledge and skills in oral and written speech, reading materials, resources, the organization of independent work of abstract
Tarix nazariyasi the theory of history	asosiy tushuncha, qoida, qonunlar va nazariyani ilmiy asoslab beradi	The basic concepts, principles, laws, and scientific theory
research experiment	bu nomidan ham ma'lum u ma'lum yo'nalish yoki mavzuni olib uni atroflicha o'rganib tadqiq qilishga asoslangan	This is also known that a certain direction, or on behalf of a theme based on a thorough examination of it
educational experiment	bir vaqtning o'zida bilimlar manbai, o'qitish uslubi va ko'rgazmalik turi bo'lib hisoblanadi. O'quv eksperimenti sub'ektiv yangilik bo'lgan hodisalarni, qonuniyatlarni kashf etish uchun xizmat qiladi.	at the same time a source of knowledge, learning style and the type of the exhibition. New educational experiment of subjective phenomena, in order to discover the laws.
teaching technology	o'kuv jarayonini texnologiyalashtirish-ni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarning barcha, boshka tushunchalarini belgilash uchun sinonim sifatida ta'lim texnologiyasi, o'kitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin	educational process texnologiyalashtirish whole detection system category. All other terms of the technologies used as a synonym for the technology, such as technology training
technology training	birinchidan, pedagogik texnologiyalarning jarayonli harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayoni-ning o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vakt davomida istikbolashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va aniq ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlov-chi usul va vositalarning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirilgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayonidir; ikkinchidan, pedagogik texnologiyalarning jarayonli - bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maksadni amalga oshirish va istikbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik xamda o'kuv faoliyati loyixasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita)	First, try to process technologies aspect. It is in the process of changing conditions during the allotted time to achieve guaranteed results istikbolashtirilgan and specific education and training to support the implementation of the process of instrumental embodies the unity of the methods and procedures of the educational model in the development and implementation of technological processes; Second, teaching texnologiyalarning process - represents an aspect of the statement. Realization of this goal and the level of achievement of the results statement of the implementation of the pedagogical and educational activities of the project (technology map)
Education Technology	pedagogik texnologiyalarning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti), "texnik va inson resurslarini xamda ularni, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini ko'yuvchi xamkorligini hisobga olgan xolda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha ja-rayonlarini yaratish, ko'llash va belgilashning tizimli usuli	pedagogical technologies are used to determine the scientific aspect. (Science subject), "the technical and human resources and forms of education and self-optimization function in detail, taking into consideration the interaction ja teaching and the development of knowledge in all areas, lakes and systematic method of determining
the education system	o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumiy funktsiyani bajaruvchi elementlar to'plamiga aytiladi. Ta'lim jarayonini bir tizim deb karaydigan bo'lsak, uni tashkil etuvchilari, ya'ni elementlariga kuyidagilar kiradi: ta'lim maksadi, o'kuv maksadlari (kutlayotgan natijalar), ta'lim beruvchi, taxsil oluvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, ta'lim shakli, ta'lim vositalari,	are closely linked together and a common set of elements that perform the function it. The education process as a unified system, its components, which include the following elements: The purpose of education, the educational objectives of the (expected), education, studying, learning content, teaching methods,

	nazorat va baxolash. Ta'lim jarayonini loyixalashtirishda yuqorida sanab o'tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda kolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa, tizim ishlamaydi, ya'ni ta'lim jarayoni oldiga ko'yilgan mak-sadga erishilmaydi	training, education, monitoring and evaluation. The education process designed to marginalize any of the above-mentioned elements indispensable or incorrectly, the system does not work, that is achieved tonight forcibly took him to mak
educational process	ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining belgilangan maksadga karatilgan xamda oldindan ko'zlangan natijaga olib boruvchi o'zaro faoliyati	the recipient of education and training purposes as well as the activities leading to the preliminary results
social Development	murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining moxiyatini to'lakonli anglash imkoniyatiga ega, favkulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni ijobiy xal eta oluvchi malakali mutaxassisga bo'lgan ijtimoiy extiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni takozo etmokda	capable of working with complex equipment, the production process are evolving, which is being able to understand to'lakonli disaster situations, be able to resolve the problems caused by qualified specialists, social demand in the education process of the organization on the basis of the technological approach wedges Cooperative
modern pedagogical criteria	ma'lum ilmiy asosga, kontseptsiyaga tayanish, tizimlilik, o'kuv-tarbiya jarayo-ni va kislarning o'zaro mantikiy bog'liqligi, samaradorlik, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlash, sarflash talab kilinadigan vakt, kuch va vositalarning me'yor darajasi ekanligi, boshkalar tomonidan kayta amalga oshirish mumkinligi	relying on scientific policy, systematic, part of the educational and training process and the mutual logical dependence, efficiency, and to guarantee the achievement of educational standards, required to spend time, energy, and means that the level of principle, others can be re-implementation of the
modern educational technology forms	ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'kuv fani, ta'lim tarbiya tizimi, ta'lim tarbiya jarayoni, pedagogik faoliyat va uning metodikalari, aloka-dor fanlarning ilmiy tadqiqotsohasi	on social worker, theoretical science, teaching science, education system, educationon training, teaching and methods, exchange-dar disciplines on on field on scientific research
method	grekcha so'z bo'lib, yo'l, axlok usuli ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy xayot hodisalarini bilish, tadqiq kilish usuli, faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki kiyofasi, shakli ko'rinishi	the Greek word , which means the method of drying . To know the nature and social life event , research facilities , method of operation , movement , or the appearance of shape looked
methodological	metodikaga tegishli, kat'iy ketma-ketlikka, tizimga, ilgaridan o'rnatilgan rejaga aniq rioya kilish	methods , strict sequence , the system previously installed to comply with certain plan
methodical	biror ishni maksadga muvofik o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi	a transfer of appropriate methods
the methodology	bilishning ilmiy metodi xakidagi ta'limot. Biror fanda ko'llanadigan metodlar majmuasi	to know about the scientific method of teaching . A complex of methods used in science
teaching method	o'kituvchining o'kuvchi-talabalar bilan mun-tazam ko'llaydigan, ularga o'z akliy kobiliyatlarini va qiziqishla-rini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash xamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli	teacher 's students for students with general - regular assignment , their mental capabilities and interest of settling the development of knowledge and skills as well as allowing you to use them in

		practice
style	biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi	any event , the implementation of the learning process or
purpose	inson xamma sohada yo'l, usul, vositalardan foydalanib, zarur faoliyatni amalga oshiradi. Demak, avval maksad paydo bo'lsa, keyin muvofik, mavjud imkoniyatlarga suvangan xoldagi faoliyat kelib chiqadi	all the way in the field of methods , tools , carries out the necessary activities . Therefore , the first objective , then , based on the potential outnumbered arising
innovation	(inglizcha so'z bo'lib "in"-yangi, "vatsion" kiri-tish, ko'llash, tatbik etish) yangilanishni, o'zgarishni joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyatini anglatadi	(The English word " in " inputs , " vera " Access teeth , applying the lake) to update , change , the introduction of the printing process and
production	kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisichisi	training and social needs as well as the level and quality of their prepared defining the basic requirements to the customer , financial and material - technical provision of training process qatnashchisichisi
the ability to	shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati	a person 's ability to reach a particular action or activity

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” “O'zbekiston”, 2021.- 464b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori..
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik liseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Ahmedov B . O‘zbekiston tarixi manbalari. (Qadimgi zamon va o‘rta asrlar):Tarix muallimlari, talabalar va yuqori sinf o‘quvchilari uchun qo‘llanma.-T.:“O‘qituvchi”,2001.-352 b.
14. Jo‘rayev R.H., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Sharq, 2005.-80 b.
15. Ochilov M. Muallim- qalb me’mori. -T.: O‘qituvchi, 2001.-430 b.
16. Baubekova G. Pedagogicheskoye masterstvo.- T.,2000.
17. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A.Pedagogik texnologiya asoslari.-T, 2001.
18. Imomnazarov M., Eshmuxamedova M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. -T.: Toshkent islom universiteti.- 2001.
19. Ishmuhammedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. - 68 b.
20. Ishmuhammedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A.Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2010.-140 b.
21. Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablisax i opornyx konspektax./ M.:Ayriss-press, 2006.
22. Tolipov U., UsmonboyevaM. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -T.: 2006.
23. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumta’lim maktabida o‘qitish metodlari -T.:O‘qituvchi, 1990.- 229 b.
24. Golish L.V. Faol o‘qitish usullari: mazmuntanlash, amalga oshirish. Ekspress qo‘llanma. -T.: TESIS, 2001.-38 b.
25. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T.,2003.
26. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.-T.: Fan, 2005. -205 b.
27. Safin D.V., Musina R.G. Ta’lim berish va o‘qishning interfaol usullari. O‘quv qo‘llanma. -1-modul. Interfaol o‘qitishning nazariy asoslari.-T., 2007.

28. Yoʻldoshev S.V. Tarix oʻqitish metodikasi. Darslik. Fargʻona. "Clssic" 2022.
29. Bhuvan Garg. Teachingofhistory. India. New Delhi.: Rajatpublications. 2010.
30. JamesB. M. Schick., TeachingHistory Witha Computer: A CompleteGuidefor CollegeProfessors. USA. 2009.
31. Ispolzovaniye informasionnyx texnologiy v obuchenii istorii i Obshchestvoznaniya. - M., 2009.
32. Grinin L. Ye. O stadiyax evolyusii gosudarstva. Problemy teorii // Istoriya i sovremennost. 2006. №1.

IV. Internet saytlar

33. <http://yedu.uz> – Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi
34. <http://lex.uz> – Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi
35. <http://lib.bimm.uz> – Oliy taʼlim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
36. <http://ziyonet.uz> – Taʼlim portali ZiyonET
37. <https://tarixinstituti.uz/uzb/> Boʻlimlar
38. <http://www.istedod.uz> - "Isteʼdod" jamgʻarmasi sayti
39. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, oʻquvchi va oʻqituvchilar sayti.